



**“SHIMOLIY MINTAQALARDA QISHLOQ XOJALIGINI
RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI VA
ULARNING INNOVATSION ECHIMLARI”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya**



UO‘T: 635.652.2:631.445.56+(632.5.51:632.934/.954)

**SURXONDARYO VILOYATI OCH TUSLI BO‘Z TUPROQLARI SHAROITIDA
GERBITSIDLARNING MOSH VA LOVIYA HOSILDORLIGIGA TA’SIRI**

Sattorov shoximardon xushmamatovich

<https://orcid.org/0009-0000-0012-4714>

O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti

Xalikov baxodir meylikovich

<https://orcid.org/0000-0002-7323-4516>

**Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot
institute**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19244552>

Annotatsiya: Maqolada Surxondaryo viloyatining och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida mosh ekini begona o‘tlariga qarshi ekish bilan birga Shansgard gerbitsidi 4,0 l/ga, o‘suv davrida Fyuzilad forte gerbitsidi 1,5 l/ga me’yorda, loviya ekini uchun ekish bilan birga Stomp gerbitsidi 4,0 l/ga, o‘suv darida Zellek super gerbitsidi 1,0 l/ga me’yorda qo‘llanilganda mosh va loviyaning hosildorligi yuqori bo‘lganligi to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlari: Mosh, loviya, och tusli bo‘z tuproq, hosildorlik, begona o‘tlar, gerbitsid.

Аннотация: В статье представлены данные о том, что при возделывании маша в условиях светлых серозёмных почв Сурхандарьинской области, применение гербицида Шансгард в норме 4,0 л/га вместе с посевом, а в период вегетации гербицида Фюзилад Форте в норме 1,5 л/га, а для фасоли гербицида Стомп в норме 4,0 л/га вместе с посевом и гербицида Зеллек Супер в норме 1,0 л/га в период вегетации обеспечивало высокую урожайность культур маша и фасоли.

Ключевые слова: Маш, фасоль, светлая серозёмная почва, **урожайность**, сорные растения, гербицид.

Annotation: The article presents data showing that under the conditions of light sierozem soils in the Surkhandarya region, the use of the herbicide Shansgrad at 4,0 l/ha together with sowing, and Fuzilad Forte at 1,5 l/ha during the vegetative period for mung bean, as well as the herbicide Stomp at 4,0 l/ha together with sowing and Zellek Super at 1,0 l/ha during the vegetative period for common bean, ensured high yields of mung bean and common bean crops.

Key words: Mung bean, common bean, light sierozem soil, yield, weeds, herbicide.

Kirish. Respublikamizning Markaziy va Janubiy hududlarida bahor mavsumida asosiy ekin sifatida ekiladigan mosh, loviya ekinining rivojlanishida begona o‘tlarning zarari va ularning hosildorlikga ta’siri o‘rganildi. Dalalarda juda ko‘p bir yillik ikki pallali va g‘allasimon begona o‘tlar, jumladan: shamak, ko‘k itqo‘noq, beshbarmoq, sho‘ra, ituzum, oqsho‘ra, temirtikan, ko‘p yillik begona o‘tlardan g‘umay, qamish, salomalaykum, qo‘ypechak va boshqa begona o‘tlar uchraydi. Begona o‘tlar madaniy o‘simliklar urug‘ining unib chiqish davridan boshlab, hosilni yig‘ib olgunga qadar zarar yetkazadi. Natijada hosil kamayib, uning sifati pasayadi.

Tadqiqot uslublari. Tadqiqotni bajarishda umumqabul qilingan «Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari», «Gerbitsidlar bilan tajribalar qo‘yish uslublari», begona o‘tlarga qarshi kimyoviy preparatlarni sinash «Qishloq xo‘jalik ekin maydonlarida begona o‘tlarga qarshi gerbitsidlarning davlat sinovini o‘tkazish» kabi uslublar asosida olib borildi.

Tadqiqot natijalari. Turli gerbitsidlarning mosh va loviya don hosildorligiga ta’siri bo‘yicha olingan ma’lumotlarga ko‘ra, Surxondaryo viloyatining och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida ekish bilan birga gerbitsidlar qo‘llanilganda, eng yuqori don hosili moshga Shansgrad gerbitsidini gektariga 4,0 l me’yorda qo‘llanilgan 9-variantdan olinib, don hosildorligi uch yilda o‘rtacha 18,9 s/ga ni tashkil etdi. Bunda qo‘shimcha don hosili nazorat variantga nisbatan 3,5 s/ga



**“SHIMOLIY MINTAQALARDA QISHLOQ XOJALIGINI
RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI VA
ULARNING INNOVATSION ECHIMLARI”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya**



ni, Gezagard andoza variantiga nisbatan esa 2,5 s/ga, boshqa turdagi gerbitsidlarga nisbatan 0,8-2,0 s/ga yuqori bo'lganligi aniqlandi. Shunga yaqinroq natijalar tajribaning 5-varianti, ya'ni Stomp gerbitsidini gektariga 4,0 l me'yorda qo'llanilganda ham olinib, don hosildorligi o'rtacha 18,6 s/ga ni tashkil etdi.

1-jadval

Surxondaryo viloyati och tusli bo'z tuproqlar sharoitida begona o'tlarning mosh va loviyaning don hosildorligiga ta'siri.

1-tajriba

№	Ekin tur-lari	Gerbitsid turlari	Me'yori, l/ga	Don hosildorligi, s/ga				Nazoratga nisbatan qo'shimcha hosil, s/ga
				2019 yil	2020 yil	2021 yil	Uch yilda o'rtacha	
1.	Mosh	Nazorat, (gerbitsidsiz)	-	16,1	12,9	17,3	15,4	-
2.		Zorro, 33% em.k. (andoza)	4,0	18,0	15,0	19,5	17,5	2,1
3.		Stomp, 33% em.k.	2,5	18,4	15,4	19,7	17,8	2,4
4.		Stomp, 33% em.k.	3,0	18,7	15,6	20,2	18,1	2,7
5.		Stomp, 33% em.k.	4,0	19,4	16,4	20,1	18,6	3,2
6.		Gezagard 50% n.kuk. (andoza)	4,0	16,9	14,0	18,5	16,4	1,0
7.		Shansgard sus.k. 500 g/l.	2,0	17,3	14,5	18,9	16,9	1,5
8.		Shansgard sus.k. 500 g/l.	3,0	17,6	14,7	19,3	17,2	1,8
9.		Shansgard sus.k. 500 g/l.	4,0	19,4	16,3	21,1	18,9	3,5
10.	Loviya	Nazorat, (gerbitsidsiz)	-	20,2	17,3	21,7	19,7	-
11.		Zorro, 33% em.k. (andoza)	4,0	23,6	21,7	24,1	23,1	3,4
12.		Stomp, 33% em.k.	2,5	24,5	22,0	26,3	24,2	4,5
13.		Stomp, 33% em.k.	3,0	25,2	22,3	26,0	24,5	4,8
14.		Stomp, 33% em.k.	4,0	26,3	23,2	27,1	25,5	5,8
15.		Gezagard, 50% n.kuk. (andoza)	4,0	21,0	17,9	22,1	20,3	0,6
16.		Shansgard sus.k. 500 g/l.	2,0	23,0	20,1	24,1	22,4	2,7
17.		Shansgard sus.k. 500 g/l.	3,0	24,2	21,3	25,1	23,5	3,8
18.		Shansgard sus.k. 500 g/l.	4,0	25,4	22,5	26,7	24,8	5,1

Loviya don hosildorligi bo'yicha olingan ma'lumotlarga ko'ra, tajribada loviyadan eng yuqori don hosili Stomp gerbitsidini gektariga 4,0 l me'yorda qo'llanilgan 14-variantdan olinib, don hosildorligi uch yilda o'rtacha 25,5 s/ga ni tashkil etdi. Bunda qo'shimcha don hosili nazorat variantga nisbatan 5,8 s/ga ni, Zorro andoza variantiga nisbatan 2,4 s/ga, boshqa turdagi gerbitsidlarga nisbatan 1,0-5,2 s/ga yuqori bo'lganligi aniqlandi. Shunga yaqinroq natijalar tajribaning 18-varianti, ya'ni Shansgard gerbitsidini gektariga 4,0 l me'yorda qo'llanilganda olinib, don hosildorligi o'rtacha 24,8 s/ga ni tashkil etdi.

Gerbitsidlarni o'suv davrida qo'llash bo'yicha olingan ma'lumotlarga ko'ra, moshdan eng yuqori don hosili Fyuzilad forte gerbitsidini gektariga 1,5 l me'yorda qo'llanilgan 5-variantdan olinib, don hosildorligi uch yilda o'rtacha 18,2 s/ga ni tashkil etdi. Bunda qo'shimcha don hosili nazorat variantga nisbatan 4,4 s/ga ni, Legion super andoza gerbitsidiga nisbatan esa 0,6 s/ga, boshqa turdagi gerbitsidlarga nisbatan 1,0-1,9 s/ga yuqori don hosili olinganligi aniqlandi.

2-jadval

Surxondaryo viloyati och tusli bo'z tuproqlar sharoitida begona o'tlarning mosh va loviyaning don hosildorligiga ta'siri.

2-tajriba

№	Ekin tur-lari	Gerbitsid turlari	Me'yori, l/ga	Don hosildorligi, s/ga				Nazoratga nisbatan qo'shimcha hosil, s/ga
				2019 yil	2020 yil	2021 yil	Uch yilda o'rtacha	
1.	Mosh	Nazorat, (gerbitsidsiz)	-	14,4	11,0	16,1	13,8	-
2.		Ramon super, 104 g/l. em.k. (andoza)	1,0	17,0	13,8	18,1	16,3	2,5
3.		Zellek super, 104 g/l. em.k.	1,0	17,8	14,6	19,2	17,2	3,4
4.		Legion super, 12,5% em.k. (andoza)	1,5	18,0	15,0	19,9	17,6	3,8
5.		Fyuzilad forte, 15% em.k.	1,5	18,9	15,5	20,3	18,2	4,4
6.	Loviya	Nazorat, (gerbitsidsiz)	-	19,3	16,2	20,9	18,8	-
7.		Ramon super, 104 g/l. em.k. (andoza)	1,0	24,0	20,8	25,1	23,3	4,5
8.		Zellek super, 104 g/l. em.k.	1,0	25,9	22,6	26,3	24,9	6,1
9.		Legion super, 12,5% em.k. (andoza)	1,5	23,8	20,6	25,0	23,1	4,3
10.		Fyuzilad forte, 15% em.k.	1,5	24,7	21,8	25,7	24,0	5,2

Loviya o'simligidan eng yuqori don hosili Zellek super gerbitsidini gektariga 1,0 l me'yorda qo'llanilgan 8-variantdan olinib, don hosildorligi uch yilda o'rtacha 24,9 s/ga ni, qo'shimcha don hosili nazorat variantga nisbatan 6,1 s/ga ni, Ramon super andoza variantiga nisbatan 1,6 s/ga, boshqa turdagi gerbitsidlarga nisbatan 0,9-1,8 s/ga ni tashkil etdi.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan xulosa qilish mumkinki, Surxondaryo viloyatining och tusli bo'z tuproqlari sharoitida mosh begona o'tlariga qarshi ekish bilan birga Shansgard gerbitsidini gektariga 4,0 l me'yorda qo'llanilganda eng yuqori don hosili 18,9 s/ga ni, loviyadagi begona o'tlarga qarshi Stomp gerbitsidini gektariga 4,0 l me'yorda qo'llanilganda 25,5 s/ga ni tashkil etdi. O'simliklarni o'suv davrida moshda Fyuzilad forte gerbitsidini gektariga 1,5 l me'yorda qo'llanilganda 18,2 s/ga ni, loviyada Zellek super gerbitsidini gektariga 1,0 l me'yorda qo'llanilganda 24,9 s/ga ni tashkil etdi.

ADABIYOTLAR:



**“SHIMOLIY MINTAQALARDA QISHLOQ XOJALIGINI
RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI VA
ULARNING INNOVATSION ECHIMLARI”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya**



1. Қодиров Б.Қ., Йўлдошев А., Зоҳидов М.М., Эрматов У.Х. Қишлоқ хўжалик экин майдонларида бегона ўтларга қарши гербицидларнинг давлат синовини ўтказиш юзасидан услубий кўрсатмалар. // - Тошкент, 2007. - Б. 1 - 27.
2. Ризаев Ш., Жўраев А., Шарифов К. Далаларда учрайдиган бегона ўтлар. // Ж. Агро илм. - Тошкент, 2015. - №4. - Б. 64
3. Ризаев Ш., Мўминов К. Кузги буғдойзордаги бегона ўтларга қарши кураш тадбирларининг дон ҳосили ва сифатини оширишдаги ўрни. // Ж. Агро илм. - Тошкент, 2013. - №3. - Б. 24-25.
4. Саидов С. Бошоқли дон ва дуккакли экинлар ҳосилдорлигини оширишда гербицид ҳамда биостимуляторларни уйғунлашган ҳолда қўллашнинг самарадорлиги. // Ж. Агро илм. - Тошкент, 2020. - №5. - Б. 22-24.
5. Халилов Н. Анғизда мош ва тарик етиштириш. // Ж. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. - Тошкент, 1992. - №4. - Б. 28.